



**RAQAMLI BANK XIZMATLARIDA DEPOZIT OPERATSIYALARI
AUDITINI TAKOMILLASHTIRISH YO‘LLARI**

Xudayarov Oybek Odilovich

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank hisobi va auditi” kafedrası PhD., dotsenti

Email: o.khudoyorov@tsue.uz

Ortiqboyev Bahrom Bahodir o‘gli

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
“Bank ishi” yo‘nalishi magistranti

E-mail: ortiqboyevbahrom@gmail.com

**ПУТИ СОВЕРШЕНСТВОВАНИЯ АУДИТА ДЕПОЗИТНЫХ
ОПЕРАЦИЙ В ЦИФРОВЫХ БАНКОВСКИХ УСЛУГАХ**

Худаяров Ойбек Одилевич

Ташкентский государственный экономический университет
Кафедра «Банковский учет и аудит»

PhD, доцент

Email: o.khudoyorov@tsue.uz

Ортикбоев Бахром Баходир угли

Ташкентский государственный экономический университет
Магистрант направления «Банковское дело»

E-mail: ortiqboyevbahrom@gmail.com

**WAYS TO IMPROVE THE AUDIT OF DEPOSIT OPERATIONS IN
DIGITAL BANKING SERVICES**

Khudayarov Oybek Odilovich

Tashkent State University of Economics
Department of “Bank Accounting and Audit”

PhD, Associate Professor

Email: o.khudoyorov@tsue.uz





Ortiqboyev Bahrom Bahodir o'gli
Tashkent State University of Economics
Master's student in the field of "Banking"
E-mail: ortiqboyevbahrom@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada raqamli moliyaviy xizmatlar bozorida depozit operatsiyalari, uning o'ziga xos xususiyatlari, tashkil etish hamda auditini olib borishning nazariy asoslari, hozirgi holati tahlili, tijorat banklarida depozit xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha yuzaga kelayotgan muammolar o'rganilgan. Bundan tashqari, depozit operatsiyalari auditini takomillashtirish bo'yicha qator taklif va tavsiyalar berib o'tilgan.

Kalit so'zlar: raqamli moliyaviy xizmatlar, raqamli bank xizmatlari, chakana bank xizmatlari, bank mahsuloti, internet-banking, mobil-banking, depozit, depozit operatsiyalari, raqamli depozit, audit, depozit audit.

Аннотация. В данной статье исследованы депозитные операции на рынке цифровых финансовых услуг, их особенности, организация и теоретические основы проведения аудита, анализ текущего состояния, а также проблемы, возникающие при предоставлении депозитных услуг в коммерческих банках. Кроме того, представлены ряд предложений и рекомендаций по совершенствованию аудита депозитных операций.

Ключевые слова: цифровые финансовые услуги, цифровые банковские услуги, розничные банковские услуги, банковский продукт, интернет-банкинг, мобильный банкинг, депозит, депозитные операции, цифровой депозит, аудит, аудит депозитов.

Annotation. This article examines deposit operations in the digital financial services market, their specific features, the organization and theoretical foundations of conducting audits, an analysis of the current situation, and the challenges arising in the provision of deposit services by commercial banks. In addition, a number of proposals and recommendations are presented for improving the audit of deposit operations.

Keywords: digital financial services, digital banking services, retail banking services, banking product, internet banking, mobile banking, deposit, deposit operations, digital deposit, audit, deposit audit.





KIRISH

Hozirgi globallashuv jarayonida raqamli texnologiyalar asosida masofaviy xizmatlar bozorining jadal rivojlanishi kuzatilmoqda. Bu rivojlanish davrida tijorat banklarining ham raqamli xizmatlarini ishlab chiqishi va shu asnoda, tovar va xizmatlar bozorida o'z o'rni va nufuzini saqlash kabi maqsadlarni o'z oldiga qo'ygan. Xususan, banklarning pul mablag'larini jalb qilishni raqamlashtirish mexanizmlari asosida amalga oshirishi, bu kabi operatsiyalarning turlari hamda usullarini ko'paytirish imkonini bermoqda. Bu esa o'z navbatida, depozit operatsiyalarining to'g'ri tashkillashtirilishi hamda faoliyat ko'rsatishini nazorat qilish bilan bog'liq jarayonlarning ham kuchaytirilishini talab qiladi. Audit tashkilotlarining raqamli xizmatlarni ko'rsatuvchi banklarning faoliyatini tekshirish hamda nazorat qilish jarayonlarini modernizatsiyalash, xavfsizligini oshirish va shaffofligini ta'minlash bo'yicha qator ilmiy ishlar hamda izlanishlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonning hozirgi bank-moliya tizimi ham qator yangiliklar, hamda innovatsiyalar bilan boyib bormoqda. Xususan, Prezidentimizning "2020 — 2025-yillarga mo'ljallangan O'zbekiston Respublikasining bank tizimini isloh qilish strategiyasi to'g'risida" gi PF-5992 sonli farmoni bank-moliya tizimini transformatsiya qilish yo'nalishlari, hamda mexanizmlari uchun yo'nalish bo'ldi. Bu farmonda berilgan vazifalar asosida raqamli bank xizmatlarini ko'rsatish bo'yicha zaruriy chora tadbirlar ishlab chiqish, xususan, depozit mablag'larini jalb qilishda raqamli texnologiyalardan foydalangan holda aholining bo'sh turgan pul mablag'laridan optimal foydalanishda ko'maklashish kabi muhim vazifalar o'rta tashlandi. Bu jarayonlarning shaffofligi hamda moliyaviy hisobotlarda to'g'ri aks ettirilishini ta'minlash maqsadida auditorlar faoliyatining to'g'ri tashkil etilganligi, hamda raqamlashuv jarayonlarini tekshirish uchun zaruriy ko'nikmlarga ega bo'lishlik talab etilmoqda. Shu sababli, raqamli xizmatlar auditini takomillashtirish bo'yicha davlatimizda ham xorijiy tajribalarga asoslangan holda huquqiy-me'yoriy hujjatlar, ilmiy tavsiya va takliflar ishlab chiqish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Banklarning aholidan bo'sh turgan pul mablag'larini vaqtincha jalb qilish bilan bo'ladigan operatsiyalari kun sayin o'zgarib, yangidan-yangi turlari va yo'nalishlari ko'payib bormoqda. Ayniqsa hozirgi global muhit va gadjetlar davrida aholining bank xizmatlariga bo'lgan ehtiyojini qondirish uchun masofaviy xizmatlar tashkil qilinmoqda. Bu esa o'z navbatida, yangidan-yangi texnika, texnologiya, dasturiy





ta'minot hamda zamonaviy tizimlar qo'llash talabini paydo qilmoqda. Xususan, internet-banking, mobil-banking, blokcheyn tarmog'i va boshqa texnologiyalar inson omilini chetlagan holda, aniq, tez hamda qulay rejimdagi xizmatlarni taklif etmoqda. Umumiy aytadigan bo'lsak, bank resurs jalb qilish maqsadida barcha imkoniyatlardan foydalanmoqda. Buning asosiy sabablari:

- Banklarning resurs bazasini shakllantish;
- Kredit operatsiyalari uchun mablag' jalb qilish;
- Bank likvidligini ta'minlash;
- Arzon resurs jalb qilish;
- Mijoz bazasini yaratish va qo'shimcha xizmatlar taqdim etish;
- Resurs jalb qilish manbalarini diversifikatsiya qilish va hokazo.

Raqamli bank xizmatlarida depozit xizmatlari va ularning auditi haqidagi ba'zi fikrlarga e'tibor qaratsak.

Bank hisobvaraqlarini ochish nafaqat bank offislarida, balki masofadan turib ham ochish mavjudligi, xizmatlarning tez va xatolarsiz amalga oshishiga yordam beradi.

“Bank hisobvaraqlariga masofadan xizmat ko'rsatish tizimlari – bu mijozning masofadan bergan topshiriqlariga asosan (bankka kelmasdan) bank xizmatlarini taqdim etish texnologiyalaridir. Asosan kompyuter va telefon tarmoqlari orqali amalga oshiriladi”[1]

“Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan raqamli depozit xizmatlari mijozlarning o'z mablag'larini va ularni elektron kanallar orqali boshqarish va noan'anaviy shaxsiy usullari. Ushbu xizmatlar qulay va samarali bank yechimlarini taqdim etish uchun texnologiyadan foydalanadi. Tijorat banklari tomonidan taqdim etiladigan ba'zi keng tarqalgan raqamli depozit xizmatlari va ular bilan bog'liq hisobvaraqlar turlari:

Hisobvaraqlar:

1. Jamg'arma hisobvaraqlari:

- Onlayn bank platformalari odatda raqobatbardosh foiz stavkalari bilan raqamli jamg'arma hisobvaraqlarini taklif qiladi.

- Mijozlar o'z jamg'armalarini kuzatishi, jamg'arma maqsadlarini belgilashi va onlayn taraqqiyotni kuzatishi mumkin.

2. Joriy hisoblar:

- Raqamli tekshirish hisoblari mijozlarga kundalik operatsiyalarni boshqarish imkonini beradi.





- Xususiyatlarga onlayn chekni to'ldirish, to'g'ridan-to'g'ri depozit va real vaqtda tranzaksiyalarni kuzatish kiradi.

3. Depozit sertifikatlari (CDS):

- Onlayn bank ko'pincha turli xil shartlar va foiz stavkalari bilan CDS-ga kirishni ta'minlaydi.

- Mijozlar onlayn platforma yordamida kompakt-disklarni ochishlari, boshqarishlari va yangilashlari mumkin"[2]

Axborot texnologiyalarining rivojlanishi bilan chakana bankning nazariy jihatlar ham bank xizmatlarini raqamlashtirish, internet-banking, mobil ilovalar va ularning mijozlarga xizmat ko'rsatish va banklarning raqobatbardoshligiga ta'siri bilan bog'liq mavzularni qamrab oladi.[3]

Ushbu hisobvaraqlar va xizmatlar orqali mijoz o'z pul mablag'larini joylashi va nazorat qilishi mumkin, lekin bu operatsiyalarning to'g'ri amalga oshirilishi, ya'ni bank tizimida to'g'ri ko'rsatilishi va hisobini yuritilishi bilan bo'g'liq muammolar bo'lishi tabiiy, bunga bir necha omillar ta'sir qilishi mumkin. Bular:

- Operatsion va texnologik omillar
- Tizim bilan bog'liq omillar
- Integratsiya bilan bog'liq omillar
- Hujjatlashtirish bilan bo'g'liq omillar
- Moliyaviy operatsiyalar hajmi ko'payishi bilan bo'g'liq omillar.

Shu sababali, auditor bunday holatlarni aniqlash, tekshirish va tavsiyalar bera olishi uchun auditor kompyuter texnologiyalari va ular bilan bo'g'liq risklarni bilishi yoki o'zlashtirishi talab etiladi.

Hozirgi bozor iqtisodiyoti sharoitida auditorlik faoliyati rivojlanishining muhim bosqichi auditorlarning zamonaviy personal kompyuterlarida buxgalteriya hisobini yuritish dasturlaridan xabardor bo'lishi va undan foydalanishi bilan bog'liq. Buning zahirida nafaqat kompyuter ichidagi hisob ma'lumotlari, shuningdek, korxonada o'tkazilayotgan audit tekshiruvlari davomida ichki nazorat tizimi elementlari va hisob tizimi bilan chambarchas aloqada kompyuter tizimi doirasidagi auditorlik tekshiruvi zarurligi tushuniladi.[4]

Hozirgi kunda, texnologiyalar rivojlangani sayin ularda paydo bo'layotgan risk turlari ham ko'payib bormoqda, ularni o'rganish va tahlil qilish auditorlar uchun muhim vazifa yoki maqsad bo'lmoqda.





“Global ichki audit ma'lumotlariga ko'ra, navigatsiya texnologiyalari bilan bog'liq eng muhim 10 ta xavf:

1. Kiberxavfsizlik
2. Axborot xavfsizligi
3. IT tizimlarini ishlab chiqish loyihalari
4. IT boshqaruvi
5. IT xizmatlarini autsorsing qilish
6. Ijtimoiy tarmoqlardan foydalanish
7. Mobil kompyuterlar
8. Axborot texnologiyalari sohasida ichki auditorlarning ko'nikmalari
9. Yangi texnologiyalar
10. Direktorlar kengashi va audit qo'mitasining texnologiya bo'yicha xabardorligi”[5]

TADQIQOTNING METODOLOGIYASI

Ilmiy maqolaning mavzusi bugungi kun talabi uchun dolzarb hisoblanib, raqamli bank xizmatlari va ularda depozit operatsiyalari auditiga ta'sir etuvchi omillar analiz-sintez usulida tahlil qilindi va xulosa va takliflar berildi. Maqolada metodologiyaning statistik, induktiv, deduktiv, mantiqiy, sistemali yondashuv, kuzatuv va empirik usullaridan foydalanildi.

NATIJA VA MUHOKAMA


Banklar tomonidan raqamli moliyaviy xizmatlar ko'rsatilishi ko'payib borishi, undagi faoliyat va nazorat qismlarining ham o'zgarib, yangilab borishini talab qiladi. Xususan, banklarning depozit operatsiyalari bilan bo'g'liq operatsiyalari alohida o'ringa ega. Chunki, bankning asosiy mablag' jalb qilish manbayi depozit operatsiyalari hisoblanib, ular bo'yicha bajarilishi hamda saqlanishi bilan bog'liq majburiyatlar bankning obro'yi va mijozlarning ishonchi bilan to'g'ri proportsional xususiyatga ega.

Xususan, raqamli bank xizmatlarining O'zbekiston Respublikasining bank tizimiga kirib kelishi, bank xizmatlari hajmining ham oshishiga olib keldi. “Xususan, 2023-yil 1-yanvar holatiga ko'ra, bank hisob raqamlariga masofaviy xizmat ko'rsatish tizimidan foydalanuvchilar soni 1,5 barobarga oshib, 30 million nafarga yetdi. Shu bilan birga, 1,2 million foydalanuvchi tadbirkorlik subyektlari, bank kartochkalari va bank depozit hisobvaraqlarini masofadan boshqarish tizimlaridan foydalanuvchi jismoniy shaxslar soni esa 28,8 million nafarni tashkil etdi.





Shu bilan birga, mobil ilovalar orqali onlayn depozitlar mobil ilovalar orqali 21,9 trillion soʻmni, konversion operatsiyalari – 20,9 trillion soʻmni, kredit toʻlovlari – 8,2



trillion soʻmni, onlayn mikrokreditlar – 5,6 trillion soʻmni tashkil etdi.”[6]. Depozit xizmatlari hajmining raqamli xizmatlar boshlanishi bilan oshganini quyidagi jadvalda koʻrishimiz mumkin.

1-rasm. Oʻzbekiston Respublikasida milliy valyutada jalb qilingan depozit mablagʻlari hajmi [7].

Shu sababli, raqamli depozit operatsiyalarni amalga oshirayotganda aholining pul mablagʻini jalb qilishda va saqlashda vujudga kelishi mumkin boʻlgan asosiy xavflarni koʻrib chiqish zarur. Bular:

- Kiberxavfsizlik xavfi
- Maʼlumotlar maxfiyligi xavfi
- Texnik va texnologik xavf
- KYC xavfi
- Operatsion xavf
- Fraud xavfi
- AML xavfi
- Reputatsion xavf va boshqalar

Bu xavflarni oldini olish maqsadida ichki audit xizmati bankni oʻrganish jarayonida ushbu xavflar xaqida maʼlumot beradi va nazorat qilish choralarini koʻradi.





“Ichki audit xizmati uchun IT xatarlari va nazorati haqida ma'lumot berishning 10 ta uslubi:

1. IT-risklarni yillik risklarni baholashga kiritilishini ta'minlash..
2. IT infratuzilmasi sohasida yangi tizimlar va loyihalarni ishlab chiqish haqida ma'lumot berish.
3. IT tahlilini har bir auditga qo'shish.
4. IT butun tashkilot bo'ylab ichki audit samaradorligini va nazorat jarayonini qanday oshirishi mumkinligini tushunish.
5. Yangi texnologiyalar joriy etilganda nazorat qilish bo'yicha tavsiyalar berish.
6. Ushbu xavflarni kamaytirish uchun qo'llanilishi mumkin bo'lgan IT xatarlari va nazorat choralari to'g'risida rahbariyatni xabardor qilish.
7. Yangi texnologiyani joriy etishdan oldin nazorat muammolari haqida tasavvurga ega bo'lish uchun yangi IT loyihalarini sinovdan o'tkazishda ko'ngilli bo'lish.
8. Murakkab IT vazifalari bilan bog'liq auditorlik tekshiruvlarini o'tkazish uchun IT mutaxassislarini audit bo'yicha mutaxassis sifatida jalb qilish.
9. Tashkilotga ta'sir qilishi mumkin bo'lgan asosiy IT xatarlari to'g'risida rahbariyat va kengashni xabardor qilish.
10. Tashkilotga ta'sir ko'rsatadigan yangi texnologiyalarni, u hozirda ulardan foydalanadimi yoki yo'qligini tushunib olish”[8].

Depozit operatsiyalari auditini o'tkazishda raqamli texnologiyalar orqali tekshirish katta ma'lumotlarni tahlil qilish, tez va sifatli audit o'tkazish imkonini beradi. Shu maqsadda audit jarayonini quyidagi raqamli texnologiyalardan foydalangan holda tekshirish, audit jarayonini tezlashtirish va to'liq amalga oshirish imkonini beradi:

- Big Data asosidagi tahlil
- Sun'iy intellekt asosidagi tahlil
- Blokcheyn texnologiyalari asosida tahlil va b.

Shu texnologiyalar yordamida audit o'tkazish uchun tekshirish obyektlari tanlab olinishi zarur.





(1-jadval)

Raqamli depozit ochish jarayonidagi asosiy tekshiruv obyektlari

№	Audit obyektlari	Tekshiriladigan jarayonlar
1	Mijoz identifikatsiyasi	Biometrik ma'lumotlar, Face-ID, elektron raqamli imzo, KYC
2	Kiberxafsizlik	Ilova yoki sayt himoyasi, kirish bilan bog'liq jarayonlar
3	AML, KYC	Operatsiyalardagi shubhali holatlar
4	Shartnomalar	Elektron rasmiylashtirish va saqlash
5	Foiz hisoblash	Hisoblash algoritmlari
6	Hisob-kitob operatsiyalari	Qayd etish, tranzaksiyalar holati, operatsiya tezligi va ma'lumotni uzatish
7	Hujjatlash	To'g'ri yaratilishi, arxivlash

Manba. Muallif tomonidan tayyorlandi.

Hozirgi vaqtda bunday turdagi tekshiruvlarni xalqaro audit kompaniyalari banklar uchun taqdim etmoqda. Xususan, "O'zbekistondagi tijorat banklari Deloitte, KPMG, Ernst & Young, PricewaterhouseCoopers va PKF MAK ALYANS, Grant Thornton xalqaro tashkilotlari tomonidan audit qilinadi." [9].

Raqamli moliyaviy xizmatlar rivojlanib borar ekan, ularda yuzaga keladigan va raqamlashgan xizmatlarning ham soni ortib boradi, shu sababli ularning nazoratini nazariy hamda amaliy tashkil etish masalalari bundanda dolzarb bo'lib boradi. Keyingi auditorlik tekshiruvlari kelajakda sodir bo'ladigan operatsiyalarning to'g'ri tuzilgani emas, balki ularning xafsizligi bilan bog'liq operatsiyalarga ko'proq e'tibor qaratilishini talab qiladi. Buning uchun albatta auditorlik tashkilotlari ham o'z tekshiruvlarining ba'zi qismlarini raqamlashtirgan holda amalga oshirishi, vaqti soati kelishi bilan oddiy hol sifatida ko'rilishiga olib keladi

XULOSA VA TAKLIFLAR

Raqamli bank xizmatlarida depozit operatsiyalari auditini amalga oshirishda quyidagilarni amalga oshirish maqsadga muvofiq bo'ladi:

- Depozit operatsiyalarini monitoring qilishda "Real-time" tizmini qo'llash;
- Avtomatlashgan tahlil dasturlarini yaratish;
- Auditorlik faoliyatiga ERP tizimini integratsiya qilish;



- “Two-factor authentication” tizimidan “Multi-factor authentication” tizimiga o’tish;
- Internet-banking va Mobile-banking tizimlarini zamon texnologiyalariga mos ravishda stress-testlar o’tkazishga tayyorlash va o’tkazish;
- Elektron shartnoma va tranzaksiylarni blokcheyn texnologiyasini qo’llash orqali aniq va himoyaviy muhit yaratish;
- Audit xodimlarining zamon talabiga mos bo’lgan texnika va texnologiyalardan foydalanish bo’yicha malakalarini oshirish;
- IT bo’yicha kerakli darajadagi sertifikatlarni bosqichma-bosqich olish;
- Raqamli operatsiyalarda vujudga keladigan risklarni oldindan aniqlash, hamda bartaraf etish bo’yicha chora tadbirlar ishlab chiqish va doimiy tartibda yangilash;
- Har bir tranzaksiya bo’yicha amalga oshirgan qurilma, vaqt va IP manzillari bo’yicha tekshirish va tahlil qilish jarayonlarining to’g’ri yo’lga qo’yish va kuchaytirish.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO’YXATI

1. Xudayarova X.A. O‘zbekistonda chakana bank xizmatlari amaliyotini takomillashtirish. Iqtisodiyot fanlari bo’yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. T.: 2020. 63 b.
2. <https://media.neliti.com/media/publications/601428-digital-deposit-services-in-commercial-b-4e552d1e.pdf>
3. Williams, L. C. (2017). Risk Management in Retail Banking: A Theoretical Perspective. Risk Analysis, 40(2), 210-225
4. A.Tuychiyev, I.Qo‘ziyev, O.Masharipov, A.Avlokulov, M. Yaqubov, I.Sherimbetov, I.Avazov “AUDIT” IQTISOD-MOLIYA. 2019. 221 b.
5. L.Urton Anderson, Michael J. Head, Sridhar Ramamoorti, Cris Riddle, Mark Salamasick, Paul J. Sobel, “AUDITING ASSURANCE & ADVISORY SERVICES” Fourth edition Copyright ' 2017 by the Internal Audit Foundation. 238 b.
6. UzDaily.uz sayti ma’lumotlari
7. cbu.uz Markaziy bank sayti ma’lumotlari
8. Urton L. Anderson, Michael J. Head, Sridhar Ramamoorti, Cris Riddle, Mark Salamasick, Paul J. Sobel, “AUDITING ASSURANCE & ADVISORY SERVICES” Fourth edition Copyright ' 2017 by the Internal Audit Foundation. 260 b.
9. tanga.uz sayti ma’lumotlari

